XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-sentabr VI-61-104-3-48-K/24 Zomin tumani

Zomin tumanining Yangiobod, Baxmal, Sh.Rashidov va Zarbdor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018yil 23-apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-,24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman kengashi

QAROR QILADI:

1. Zomin tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud (massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhining Yangiobod, Baxmal, Sh.Rashidov va Zarbdor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.
2. Quyidagilar:
- Zomin tumanining Yangiobod, Baxmal, Sh.Rashidov va Zarbdor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;
- Zomin tumanining Yangiobod, Baxmal, Sh.Rashidov va Zarbdor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashidan so‘ralsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (B.Berdimurodov)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



ABDUGANIYEV
ALISHER
MUXAMMADIYEVICH

Xalq deputatlari Zomin tumani
Kengashining
2024-yil 27-sentabrdagi
VI-61-104-3-48-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Zomin tumani ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining yakuniy natijalari bo‘yicha
TAVSIFI

Sirdaryo viloyati, Zarbdor tumani va Zomin tumanining chegara chiziqlari kesishgan joy, yo‘l bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1–nuqta deb qabul qilindi. WGS-84 koordinatalar tizimda, *(shimoliy kenglik 40°15'38,580", sharqiy uzunlik 68°28'27,317").*

A dan B gacha Sirdaryo viloyati Xovos tumani yerlari bilan 1-7 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali avtomobil ko‘prigini kesib o‘tib, Janubiy Mirzacho‘l kanaliga tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 429 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2833 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 2519 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 5446 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 850 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'43,215", sharqiy uzunlik 68°36'43,894").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan dambaga o‘tadi va damba bo‘ylab avval janubiy yo‘nalishda 133 metr keyin g‘arbiy yo‘nalishda 29 metr masofani o‘tadi, so‘ng Jizzax Bosh zovurini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1877 metr masofani o‘tib, avtomobil ko‘prigi bo‘yida joylashgan3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'38,183", sharqiy uzunlik 68°36'47,266").*

3-nuqtadan chegara tog‘ri chiziq orqali avtomobil ko‘prigini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2520 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°13'16,808", sharqiy uzunlik 68°36'56,622").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan avval g‘arbiy yo‘nalishda 831 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1184 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 899 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'56,542", sharqiy uzunlik 68°34'59,291").*

5-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali DM-1 kanalini kesib oʻtib, sim toʻsiqqa tutashadi va sim toʻsiq boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1018 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 2107 metr masofani oʻtib, temir yoʻl boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°11'18,952", sharqiy uzunlik 68°35'32,420").*

6-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali temir yoʻlni kesib oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 445 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning tomoni va yoʻnalishi oʻzgarmagan holda 2251 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 520 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 193 metr masofani oʻtib, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Tojikiston Respublikasi chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'33,440", sharqiy uzunlik 68°36'09,980").*

B dan D gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 7– 8 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

7-nuqtadan 8-nuqtagacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan chegaradosh bo‘lib, chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i olindi. *(shimoliy kenglik 40°04'05,701", sharqiy uzunlik 68°36'13,868").*

D dan E gacha Yangiobod tumani yerlari bilan 8-34 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

8-nuqtadan chegara chizig‘i toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 39 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°04'05,108", sharqiy uzunlik 68°36'12,428").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 332 metr masofani oʻtib, yo‘l bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'55,713", sharqiy uzunlik 68°36'19,264").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegra chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishida 118 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li boʻyidagi 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'54,217", sharqiy uzunlik 68°36'14,680").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan quruq ariqqa o‘tib, ariqning o‘ng tomoni bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1153 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 2320 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'08,395", sharqiy uzunlik 68°36'45,243").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishida 1157 metr masofani o‘tib, yo‘l boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'32,237", sharqiy uzunlik 68°36'53,455").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan quruq soyga o‘tadi va soyning sharq tomoni bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4746 metr, keyin o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 2324 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°58'19,175", sharqiy uzunlik 68°38'46,990").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan quruq soyga tutashadi va soyning o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5023 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'01,258", sharqiy uzunlik 68°39'58,819").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soydan quruq ariqqa o‘tadi va ariqning o‘ng tomoni bilan umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishida 293 metr masofada ariqni kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55'58,269", sharqiy uzunlik 68°39'47,961")*

16-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 441 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'10,089", sharqiy uzunlik 68°39'39,649").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan qir-adirliklar yonbag‘rlariga o‘tadi va qir-adirlik yonbag‘rlari bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 373 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'17,447", sharqiy uzunlik 68°39'31,881").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1398 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'52,408", sharqiy uzunlik 68°39'02,411").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan qir-adirliklar yonbag‘riga o‘tib, keyin qir-adirliklar yonbag‘ri bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1125 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°57'09,263", sharqiy uzunlik 68°38'23,609").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1526 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 39°57'48,550", sharqiy uzunlik 68°37'47,572").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali quruq soyga tutashadi va soyning chap tomoni bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 460 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°57'57,165", sharqiy uzunlik 68°37'34,725").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1287 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°57'45,547", sharqiy uzunlik 68°36'43,068").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2161 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°57'08,834", sharqiy uzunlik 68°37'56,760").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 486 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 1792 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'50,260", sharqiy uzunlik 68°36'31,533").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan soyga o‘tadi va umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishida soyning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1653 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'22,953", sharqiy uzunlik 68°37'20,212").*

26-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2163 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1649 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55'13,329", sharqiy uzunlik 68°39'02,862").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i soydan haydalma yer chegarasiga o‘tadi va haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1822 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54'26,478", sharqiy uzunlik 68°39'23,070").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasidan qir-adirliklar yonbag‘rlariga o‘tadi va qir-adir yonbag‘rlari bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1385 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 201 metr masofada dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'45,346", sharqiy uzunlik 68°39'28,997").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1061 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutushadi *(shimoliy kenglik 39°53'43,493", sharqiy uzunlik 68°38'50,409")*

30-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan avval janubiy yo‘nalishda 619 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 99 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'26,235", sharqiy uzunlik 68°38'57,357").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan quruq soyga o‘tadi va soyning chap tomoni bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1119 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°52'58,544", sharqiy uzunlik 68°38'39,623").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishida soyning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda

1901 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°52'12,651", sharqiy uzunlik 68°38'37,588").*

33-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali quruq soyga oʻtib, keyin soyning chap tomoni boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2407 metr masofani oʻtib, Zomin tumani, Yangiobod tumani va Tojikiston respublikasi chegara chiziqlari kesishgan joy, quruq soy boʻyida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51'01,690", sharqiy uzunlik 68°38'30,027").*

E dan F gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 34– 35 - nuqtalar oralig'ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

34 - nuqtadan 35 - nuqtagacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan chegaradosh boʻlib, chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi olindi. *(shimoliy kenglik 39°33'30,410", sharqiy uzunlik 68°17'09,253").*

F dan G gacha Baxmal tumani yerlari bilan 35-52 nuqtalar oralig'idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

35-nuqtadan chegara chizigʻi togʻ choʻqqisi (xrebet) boʻylab, shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1391 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan joylashgan 36-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°34'10,959", sharqiy uzunlik 68°17'32,924").*

36-nuqtadan chegara chizigʻi togʻ choʻqqisi (xrebet) boʻylab, umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 506 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°34'26,970", sharqiy uzunlik 68°17'30,677").*

37-nuqtadan chegara chizigʻi togʻ choʻqqisi (xrebet) boʻylab shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 794 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°34'46,003", sharqiy uzunlik 68°17'08,450").*

38-nuqtadan chegara chizigʻi togʻ choʻqqisi (xrebet) boʻylab, avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 4484 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1475 metr masofani oʻtadi va togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°37'14,689", sharqiy uzunlik 68°19'09,537").*

39-nuqtadan chegara chizigʻi quruq chegara chizigʻi orqali umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 2113 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°38'16,571", sharqiy uzunlik 68°19'26,629")*

40-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 701 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 244 metr masofada 4R-40 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°38'33,625", sharqiy uzunlik 68°19'48,179").*

41-nuqtadan chegara chizigʻi 4R-40 avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan

holda 2242 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°39'38,355", sharqiy uzunlik 68°19'23,517").*

42-nuqtadan chegara chizigʻi 4R-40 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2410 metr masofada quruq soyga tutashadi va soyning oʻng tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2207 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°41'46,177", sharqiy uzunlik 68°20'18,691").*

43-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6866 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'24,977", sharqiy uzunlik 68°16'06,032").*

44-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy yoʻnalishda 890 metr masofada dala tuproq yoʻli boyiga tutashadi keyin, quruq chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 3638 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan 45-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°44'15,848", sharqiy uzunlik 68°13'19,090").*

45-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4079 metr masofada quruq soyni kesib oʻtib, soy boʻyida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'56,519", sharqiy uzunlik 68°10'36,082")*

46-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2289 metr masofani oʻtib, quruq soyni kesib oʻtib, soy boʻyida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°45'19,734", sharqiy uzunlik 68°09'04,764").*

47-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 3373 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°46'28,447", sharqiy uzunlik 68°07'14,544").*

48-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 4619 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°47'16,959", sharqiy uzunlik 68°04'17,307").*

49-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2464 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'20,909", sharqiy uzunlik 68°03'16,111").*

50-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 5567 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°49'15,520", sharqiy uzunlik 67°59'42,875").*

51-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1858 metr masofani

oʻtib, Zomin tumani, Baxmal tumani va Sharof Rashidov tumani chegara chiziqlari kesishgan joy, togʻ choʻqqisida (xrebet) joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°49'37,960", sharqiy uzunlik 67°58'32,856").*

G dan H gacha Sharof Rashidov tumani yerlari bilan 52-79 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

52-nuqtadan chegara chizig‘i toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1482 metr masofani oʻtib, quruq soyga tutashadi va soyning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2115 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 429 metr masofada soyni kesib o‘tib, haydalma yer chegarsida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51'09,302", sharqiy uzunlik 68°00'06,474").*

53-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 713 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 644 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51'46,296", sharqiy uzunlik 68°00'24,694").*

54-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 267 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarsida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51'52,212", sharqiy uzunlik 68°00'30,538").*

55-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 593 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 507 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51'58,728", sharqiy uzunlik 68°00'45,171").*

56-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasidan quruq soyga o‘tadi, keyin quruq soyning sharq tomoni bo‘ylab avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 553 metr, so‘ng umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1230 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°52'48,936", sharqiy uzunlik 68°00'46,884").*

57-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval,umumiy sharqiy yo‘nalishda 690 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 641 metr masofani oʻtib, yo‘l bo‘yida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'03,768", sharqiy uzunlik 68°01'15,727").*

58-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 358 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1279 metr masofani oʻtib, yo‘l bo‘yida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'44,912", sharqiy uzunlik 68°01'32,436").*

59-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1724 metr masofani oʻtib, yo‘l bo‘yida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54'35,089", sharqiy uzunlik 68°01'47,410").*

60-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 311 metr masofada quruq soyni kesib o‘tib, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda 690 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55'01,510", sharqiy uzunlik 68°01'54,376").*

61-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 509 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 742 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55'36,228", sharqiy uzunlik 68°01'56,809").*

62-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 344 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55'45,730", sharqiy uzunlik 68°01'49,570").*

63-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 139 metr, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 797 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'12,465", sharqiy uzunlik 68°01'50,883").*

64-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 392 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'16,373", sharqiy uzunlik 68°02'06,320").*

65-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 618 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'27,792", sharqiy uzunlik 68°01'56,250").*

66-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasidan quruq soyga o‘tadi, keyin quruq soyning sharq tomoni bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 505 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'41,635", sharqiy uzunlik 68°02'01,095").*

67-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 632 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'46,548", sharqiy uzunlik 68°02'22,390").*

68-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 172 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soyning janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 697 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 69-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°57'06,832", sharqiy uzunlik 68°02'42,308").*

69-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning janub tomoni bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1389 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 70-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°57'34,775", sharqiy uzunlik 68°03'08,269").*

70-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning janub tomoni bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 961 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 71-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°58'01,160", sharqiy uzunlik 68°03'22,271").*

71-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1334 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 72-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°58'32,829", sharqiy uzunlik 68°03'57,781").*

72-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1464 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 73-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59'12,597", sharqiy uzunlik 68°03'48,449").*

73-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 218 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 74-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59'19,326", sharqiy uzunlik 68°03'51,228").*

74-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda 5908 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 75-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'25,859", sharqiy uzunlik 68°04'30,548").*

75-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 484 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 76-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'25,457", sharqiy uzunlik 68°04'50,912").*

76-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib quruq ariqqa tutashadi va ariqning chap tomoni bo‘ylab avval shimoliy yo‘nalishda 1424 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1908 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 77-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'10,602", sharqiy uzunlik 68°05'16,795").*

77-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 869 metr masofada zovurni kesib o‘tib, quruq ariq bo‘yida joylashgan 78-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'38,085", sharqiy uzunlik 68°05'24,753").*

78-nuqtadan chegara chizig‘i quruq ariqning chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 172 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 96 metr masofada temir yo‘lni kesib o‘tib, Zomin tumani, Sharof Rashidov tumani va Zarbdor tumani chegara chiziqlari kesishgan joy, temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 79-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'46,736", sharqiy uzunlik 68°05'25,700").*

H dan I gacha Zarbdor tumani yerlari bilan 79-1 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

79-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 4141 metr masofani o‘tib, temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 80-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'36,751", sharqiy uzunlik 68°08'19,602").*

80-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 102 metr masofani o‘tib, temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘yidagi 81-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°04'36,433", sharqiy uzunlik 68°08'23,893").*

81-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 3828 metr masofani o‘tib, temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 82-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'22,760", sharqiy uzunlik 68°11'03,818").*

82-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 7118 metr masofani o‘tib, temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 83-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'28,034", sharqiy uzunlik 68°15'53,804").*

83-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘ylab avval sharqiy yo‘nalishda 3529 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2306 metr masofani o‘tib, temir yo‘l sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 84-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'00,212", sharqiy uzunlik 68°19'44,086").*

84-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 163 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 85-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'05,331", sharqiy uzunlik 68°19'42,442").*

85-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan haydalma yer chegarasiga o‘tadi va haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 44 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1144 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 86-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'36,973", sharqiy uzunlik 68°19'16,346").*

86-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1001 metr masofani o‘tadi va dala tuproq yo‘liga tutashadi yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 68 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 87-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'05,203", sharqiy uzunlik 68°18'59,219").*

87-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 809 metr masofada kanalni kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 88-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'28,403", sharqiy uzunlik 68°18'45,803").*

88-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan haydalma yer chegarasiga o‘tadi va haydalma yer chegarasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 714 metr masofada A-376 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 89-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'48,857", sharqiy uzunlik 68°18'35,447").*

89-nuqtadan chegara chizig‘i A-376 avtomobil yo‘lining shimol tomoni bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 4597 metr masofada zovurni kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 90-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'33,097", sharqiy uzunlik 68°21'40,774").*

90-nuqtadan chegara chizig‘i A376 avtomobil yo‘lining shimol tomoni bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 6509 metr masofada zovurni kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 91-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'35,469", sharqiy uzunlik 68°26'03,337").*

91-nuqtadan chegara chizig‘i A376 avtomobil yo‘lining shimol tomoni bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2086 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 92-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'55,272", sharqiy uzunlik 68°27'27,591").*

92-nuqtadan chegara chizig‘i A376 avtomobil yo‘lining shimol tomoni bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2127 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 93-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'15,476", sharqiy uzunlik 68°28'53,489").*

93-nuqtadan chegara chizig‘i A376 avtomobil yo‘lidan Yakkabog‘-15 Yo‘l Patrul Xizmati maskani chegarasiga tutashadi va Yo‘l Patrul Xizmati maskani chegarasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 122 metr masofani o‘tib, Yo‘l Patrul Xizmati maskani chegarasi bo‘yida joylashgan 94-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'17,758", sharqiy uzunlik 68°28'57,399").*

94-nuqtadan chegara chizig‘i Yakkabog‘-15 Yo‘l Patrul Xizmati maskani chegrasi bo‘ylab avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 29 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 154 metr masofani o‘tib, 4R33 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 95-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'20,366", sharqiy uzunlik 68°29'03,205")*

95-nuqtadan chegara chizig‘i 4R33 avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1404 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 96-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'02,271", sharqiy uzunlik 68°28'40,101").*


96-nuqtadan chegara chizig‘i kanalni kesib o‘tadi va 4R33 avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 6555 metr masofada DM-1 kanalni ko‘prik bo‘ylab kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 97-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'33,011", sharqiy uzunlik 68°28'24,725").*

97-nuqtadan chegara chizig‘i 4R33 avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab avval shimoliy yo‘nalishda 5571 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 166 metr masofada Jizzax Bosh zovurini kesib o‘tib, Zomin tumani, Zarbdor tumani va Sirdaryo viloyatining Xovos tumani chegara chiziqlari kesishgan joy, yo‘l bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'38,580", sharqiy uzunlik 68°28'27,317").*

Xalq deputatlari Zomin tumani
Kengashining
2024-yil 27-sentabrdagi
VI-61-104-3-48-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jizzax viloyati Zomin tumani ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha *Sirdaryo viloyati yerlari*
B dan D gacha *Tojikiston Respublikasi yerlari*
D dan E gacha *Yangiobod tumani yerlari*
E dan F gacha *Tojikiston Respublikasi yerlari*
F dan G gacha *Baxmal tumani yerlari*

Shartli belgilar

Chegaraning burilish nuqtalari
Davlat chegaralari